
Mahallalarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda

Ayni kunlarda Rishton tumanidagi barcha mahallalarda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va shukronalik tadbirlari o'tkazilmoqda.

Tumanimizdagi mahalla fuqarolar yig'inlarida ham hashar uyushtirilib, obodonlashtirish ishlari olib borildi. Mahalla ahli tomonidan qabriston va ko'chalarda tozalash ishlari tashkil etildi.

Obodonlashtirish ishlari yakunida ajdodlar ruhiga bag'ishlab Qur'on tilovat qilinib, elga tinchlik-omonlik va dehqonchiliklarga qut-baraka tilab duo qilindi.

Joylarda bunday xayrli tadbirlar davom etmoqda.

2024-03-09 08:40:53